



NEOLOGIZMLARNI O‘QITISHDA “RAFT” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Karamatdinova Gavhar Toyirovna,

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206618>

***Annotatsiya.** Maqolada neologizmlar mavzusini RAFT (Rol, Auditoriya, Forma, Tema) texnologiyasi asosida o‘qitishning samarali yo‘llari yoritilgan. O‘qituvchilarga neologizmlarni interaktiv, ijodiy va kontekstual yondashuv orqali o‘rgatish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar beradi. Unda dars jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan topshiriqlar, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlovchi metodlar va baholash mezonlari keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Neologizm, RAFT texnologiyasi, innovatsion yondashuv, til o‘rganish, interaktiv metod, yangi so‘zlar, ijodiy fikrlash, dars jarayoni, ta‘lim texnologiyasi, lingvistik kompetensiya.*

Hozirgi kunda o‘qitishning yangi usullarini qo‘llash zarurati paydo bo‘lmoqda. Shu bilan bog‘liq yangi pedagogik texnologiya va interfaol usullar degan tushunchalar ham paydo bo‘ldi. Har bir fanni o‘qitishning samaradorligi o‘qituvchining o‘qitish metodlarini yaxshi bilishi, metodni tanlay olishi va uni qo‘llay olishi bilan bog‘liq. O‘qitish metodlarini tanlashda ikkita eng muhim masala nazarda tutiladi:

- a) o‘quvchilarning nazariy bilimlarni egallash qobiliyati;
- b) o‘rganilgan bilimni amaliy mashqlar bilan sifatli o‘zlashtirish va amalda qo‘llay olishi.

Dunyo didaktik olimlari so‘nggi yillarda ta‘lim metodlari va ularning mazmuniga oid ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Ular o‘qitish metodlariga turlicha yondashadilar.

RAFT (Rol, Auditoriya, Shakl, Mavzu) – bu o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalardan biri bo‘lib, o‘quvchilarga turli rollarga kirib, ma‘lum bir auditoriyaga mos keladigan formatda yozma yoki og‘zaki nutqni shakllantirish imkonini beradi.

Metod AQShda ishlab chiqilgan bo‘lib, 1980-yillarda ta‘lim va pedagogik tadqiqotlar sohasida qo‘llanila boshlangan. Ushbu metodning asosiy maqsadi o‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishdan iborat. Dastlab yozma nutqni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan amerikalik pedagoglar tomonidan yo‘lga qo‘yilgan. Ularning fikricha,



an’anaviy yozuv darslari ko‘pincha cheklangan bo‘lib, o‘quvchilarga ijodiy va aniq vaziyatlarda qanday yozish kerakligini tushunish imkonini bermagan. Shu sababli, RAFT usuli ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

RAFT til va adabiyot darslarida yozma nutqni rivojlantirish uchun qo‘llanilgan. Keyinchalik metod fanlararo usul sifatida boshqa fanlarga ham tatbiq etila boshlandi (masalan, tarix, biologiya, ijtimoiy fanlar va boshqalar). 1990-yillarga kelib, pedagogika va metodika sohasida mazkur metodning samaradorligi bo‘yicha tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borildi.

Hozirgi kunda RAFT metodi nafaqat ingliz tili yoki adabiyot fanlarida, balki boshqa tillarni o‘qitishda, shu jumladan, qoraqalpoq tilini o‘qitishda ham muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Bu metod orqali o‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashga undash mumkin.

RAFT texnologiyasining asosiy elementlari:

1. R (rol): O‘quvchi qaysi shaxs yoki obraz nomidan yozishi kerakligini aniqlaydi. Masalan, shoir, jurnalist, o‘qituvchi, talaba, tarixchi va boshqalar.

2. A (auditoriya): O‘quvchi kim uchun yozayotgani yoki gapirayotganini belgilaydi. Masalan, o‘quvchilar, ota-onalar, hukumat vakillari, tengdoshlari, yosh bolalar va boshqalar.

3. F (shakl): Matn yoki nutq qanday shaklda bo‘lishi kerakligi aniqlanadi. Masalan, xat, maqola, she‘r, hikoya, reportaj, dramatik sahna, intervyu, e‘lon, xabar va boshqalar.

4. T (mavzu): Asosiy mazmun yoki mavzu aniqlanadi. Masalan, “Til madaniyati”, “Qoraqalpoq tilining rivojlanishi”, “Tabiatni muhofaza qilish”, “Neologizmlarni o‘qitish” kabi mavzular tanlanishi mumkin.

Zamonaviy tilshunoslikda neologizmlar — tilga yangi kirib kelgan, ilgari mavjud bo‘lmagan, yangi tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar sifatida alohida o‘ringa ega. Texnologiya, madaniyat, siyosat va boshqa sohalaridagi o‘zgarishlar natijasida tilimizda yangidan-yangi so‘zlar paydo bo‘lib bormoqda. Qoraqalpoq tilida ham yangi so‘zlar muntazam ravishda shakllanib, lug‘at tarkibini boyitib boradi. Ushbu jarayonni chuqur anglash, yangi so‘zlarning shakllanishi va ularning ma‘no qatlamlarini o‘rganish o‘quvchilar til madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, neologizmlarni o‘qitishda interaktiv yondashuvlardan foydalanish zarurati tug‘iladi. Ana shunday samarali yondashuvlardan biri bu — RAFT texnologiyasidir. Mazkur texnologiya orqali

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



o‘quvchilar mavzuni turli nuqtai nazardan yoritib, yangi so‘zlarni ijodiy va funksional tarzda o‘zlashtiradilar.

RAFT texnologiyasi asosida neologizmlarni o‘qitish modeli.

1. Kirish: O‘qituvchi neologizmlar nima ekanligini tushuntiradi, qoraqalpoq tilidagi yangi so‘zlardan misollar keltiradi (masalan, “internet”, “mobil ilova”, “chatbot” va boshqalar).

2. Rol tanlash: O‘quvchilar o‘zlariga yoqqan rolni tanlaydilar (masalan, jurnalist, bloger, olim va h.k.).

3. Auditoriyani belgilash: Ular kimga murojaat qilishini aniqlaydi (yoshlar, olimlar, o‘qituvchilar va h.k.).

4. Formatini aniqlash: Maqola, intervyu, blog posti, suhbat yoki xat shaklida topshiriq bajariladi.

5. Mavzuni tanlash: O‘quvchilar tanlagan formati va rolidan kelib chiqib, neologizmlar haqida yozadi yoki taqdimot tayyorlaydi.

Amaliy mashg‘ulot namunasi.

O‘quvchilarni guruhlariga ajratib RAFT jadvallari tarqatiladi.

Guruh	Rol	Auditoriya	Shakl	Mavzu
1	Muxbir	Yoshlar	Intervyu	Neologizmlar yoshlar tiliga qanday ta’sir qiladi?

Guruh	Rol	Auditoriya	Shakl	Mavzu
2	Tilshunos	O‘qituvchi	Esse	Neologizmlar yoshlar tiliga qanday ta’sir qiladi?

Guruh	Rol	Auditoriya	Shakl	Mavzu
3	Blogerlar	Intagramm yoshlari	Blog mavzusi	Neologizmlar yoshlar tiliga qanday ta’sir qiladi?

Bajarilishi:

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



1. O‘quvchilar qoraqalpoq tilida paydo bo‘lgan yangi so‘zlarni aniqlaydilar.
2. Ular bu so‘zlarning qanday paydo bo‘lganligi va jamiyatga qanday ta’sir etayotganligi haqida fikr yuritadilar.

RAFT texnologiyasi asosida neologizmlarni o‘qitish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, til boyligini oshirish va yangi so‘zlarni anglash jarayonini faol va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bu usul orqali o‘quvchilar neologizmlarning paydo bo‘lish sabablari, ularning ijtimoiy hayotdagi roli va zamonaviy til taraqqiyotidagi o‘rnini chuqur anglaydilar. Turli rol va formatlar asosida vazifalarni bajarish jarayonida ular yangi so‘zlarni qo‘llashga, ularni kontekstda to‘g‘ri ishlatishga o‘rganadilar. Shu bilan birga, RAFT texnologiyasi darsni jonlantiradi, o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va mavzuni hayotiy misollar orqali tushunishga yordam beradi. Natijada, bu yondashuv neologizmlarni o‘rgatishda samarali, interaktiv va o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Seytkasimov D., Bekmuratova G. Psixologiyaliq terminlerdin túsindirne sózligi. – Nókis: «Qaraqalpaqstan». 2023.
2. Berdimuratov E. Házirgi qaraqalpaq tili. Leksikologiya. – Nókis: Bilim, 1994.
3. Kuranbayeva X.A. Ona tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Zuxra baraka biznes, 2023.
4. Piriniyazova A., Shinnazarova S. Házirgi ádebiy til (leksikologiya)di oqıtıwda innovaciyalıq usıllar. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2020.
5. Allaniyazova Sh., Táńirbergenov J. Qaraqalpaq tilin oqıtıwda innovaciyalıq texnologiyalar (oqıw qollanba) – Nókis. Bilim, 2015.